O'ZBEKISTONDA KORXONALARNING TASHQI IQTISODIY FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI.....	736
Pulatova Moxira Baxtiyorovna	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDA XARAJATLARNI BOSHQARISH VA HISOBGA OLIHNING INNOVATSION USULLARI: MENEJMENT VA BUXGALTERIYANING O'ZARO INTEGRATSIYASI	742
Mamadiyarov Dilshad Uralovich, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	



QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDA XARAJATLARNI BOSHQARISH VA HISOBGA OLISHNING INNOVATSION USULLARI: MENEJMENT VA BUXGALTERIYANING O'ZARO INTEGRATSIYASI

Mamadiyarov Dilshad Uralovich

Dotsent.

Normurodov Sarvar Norboy o'g'li

Katta o'qituvchi,

Orcid-0009-0009-1241-9339,

Toshkent davlat agrar universiteti, TDAU, O'zbekistan,

E-mail: s.n.normurodov@bk.ru

Annotatsiya. Maqolada qishloq xo'jaligida innovatsion jarayonlarni o'ziga xos xususiyatlari, qishloq xo'jaligi rivojlanishining innovatsion yo'nalishlari keltirilgan. Shuningdek mualliflar tomonidan respublikamizda innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi va xarajatlari dinamikasini tahlili, innovatsiyalarni qishloq xo'jaligida qo'llanilish sohasi bo'yicha tasniflash borasidagi fiqrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiyalar, menejmentda innovatsiyalar, texnologik innovatsiyalar, marketing innovatsiyalar, tashkiliy innovatsiyalar, innovatsion texnologiyalar, innovatsion jarayon, innovatsion faoliyat, innovatsion siyosat, innovatsion infratuzilma, innovatsion yo'nalishlar.

Abstract. This article examines the characteristics of innovation processes in agriculture and innovative trends in agricultural development. The authors also present their views on the analysis of the dynamics of the volume and value of innovative products, works, and services in our republic, as well as the classification of innovations by application in agriculture.

Key words: innovation, management innovation, technological innovation, marketing innovation, organizational innovation, innovative technologies, innovation process, innovation activity, innovation policy, innovation infrastructure, innovation trends.

Аннотация. В статье рассматриваются особенности инновационных процессов в сельском хозяйстве, инновационные направления развития сельского хозяйства. Авторы также излагают свои взгляды на анализ динамики объема и стоимости инновационной продукции, работ, услуг в нашей республике, а также классификацию инноваций по областям применения в сельском хозяйстве.

Ключевые слова: инновации, инновации в управлении, технологические инновации, маркетинговые инновации, организационные инновации, инновационные технологии, инновационный процесс, инновационная деятельность, инновационная политика, инновационная инфраструктура, инновационные направления.

KIRISH

Mamlakatda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish hamda aholi hayot darajasi va farovonligining barqaror o'sishiga imkon beruvchi faol tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishga, innovatsion texnologiyalarni joriy etishga, innovatsion faoliyat rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. [1, 7]

Mamlakat qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan innovatsiyalar uchun sarflangan mablag'larning qoplanish muddati uzoq bo'lib, ahamiyatli darajadagi tavakkalchilikka ega. Zeroqi tarmoqning o'ziga xos



xususiyatlari: ishlab chiqarish jarayonini tabiiy-iqlim sharoitlariga bog'liqligi, ishlab chiqarish siklining uzoq davom etishi, kapitalning aylanish tezligini pastligi, malakali kadrlarning yetishmasligi, ishlab chiqarishning keskin namoyon bo'ladigan mavsumiyliigi hamda tarmoqning imtiyozli qarz mablag'lariga ancha qaramligi buni taqozo etadi. Ushbu omillar majmui hozirda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi korxonalarda innovatsion faollik sur'atlarining pastligiga sabab bo'lmoqda¹. Mazkur holat qishloq xo'jaligi subyektlarida innovatsion salohiyatni oshirishning ilmiy-nazariy jihatlarini bo'yicha tadqiqotlar olib borishni muhimligidan dalolat beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Xorijiy iqtisodchi olimlarning fikricha innovatsiya bu g'oya va kashfiyotlarni amaliy qo'llash orqali o'z xususiyatlari bo'yicha avvalgidan yaxshiroq mahsulot va texnologiya yaratilishi uchun sharoit yaratilishi hisoblanadi (B.Santo) [4]. F.Nikson fikricha innovatsiya bozorda yangi va yaxshilangan sanoat jarayonlari va uskunalar paydo bo'lishiga olib keladigan texnik, ishlab chiqarish va tijorat tadbirlari yig'indisi hisoblanadi [3].

Ammo, bizningcha muallifning fikrlari masalani to'liq yoritib bermagan. Chunki innovatsiyalar faqatgina sanoat ishlab chiqarishi va yangi uskunalar paydo bo'lishi bilan chegaralanmasligi lozim. Masalan, qishloq xo'jaligiga ishlab chiqarishi va xizmat ko'rsatish sohalarida ham innovatsiyalar yaratiladi va amaliyotga yetib boradi.

Innovatsion jarayonlar bilan bog'liq muammolarni birinchilardan bo'lib o'rgangan olimlardan biri Y.Shumpeter - innovatsion o'zgarishlarni korxonalar nuqtai nazaridan baholagan holda ishlab chiqarishni yangi texnika va texnologik jarayonlar asosida ta'minlash evaziga bozorlarga chiqish, yangi xususiyatlarga ega bo'lgan mahsulot turlarini yaratish, yangi xomashyolardan foydalanish, ishlab chiqarishni tashkil etishni takomillashtirish va yangi innovatsion tovarlar bilan yangi iste'mol bozorlarini ochish yo'nalishlariga ajratgan holda tadqiq etishni tavsiya qilgan [5].

Y.Shumpeterning fikrlariga qo'shilgan holda, bu borada munozarali holat yangi bozorlarga chiqish masalasi hisoblanadi. Ammo, innovatsion g'oyalardan foydalangan holda yetishtirilgan mahsulot yangi bozorda yoki eski bozorda sotilishi innovatsion jarayonlarga salbiy yoki ijobiy ta'sir etmasligi mumkin. Shu jihatdan yangi bozorlarda sotish masalasi innovatsion g'oyalardagi foydalanishni cheklamaydi.

P. Druker esa innovatsiyalarni rivojlantirishni tadbirkorlik nuqtai nazaridan talqin etib, tadbirkorlarning innovatsion qarashlari, fikrlashi bir- biridan farqlanishi, innovatsiya jarayonlarining rivojlanishi tadbirkorlikning ixtisoslashuv yo'nalishlariga bog'liqligini ta'kidlaydi [2].

Bu borada P.Drukerning fikrlariga qo'shilish mumkin. Haqiqatdan ham innovatsion rivojlanish tadbirlarning ixtisoslashuviga bog'liq bo'ladi. Ayni paytda innovatsion faoliyat tadbirkorning qobiliyatiga va moliyaviy imkoniyatiga bog'liq bo'ladi. Fikrimizcha, qishloq xo'jaligidagi innovatsion jarayon innovatsiya yoki innovatsion jarayon - bu ilmiy ishlanmalarga asoslangan muayyan seleksion, agrokimyoviy, texnik va texnologik g'oyalarni yangi navlarga, gibridlarga, qoramol zotlariga, kimyoviy yoki biologik preparatlarga, texnologiyalar va uning ayrim tarkibiy qismlariga aylantirish va ularni bevosita ishlab chiqarishda qo'llashning yagona va uzluksiz jarayondir.

Qishloq xo'jaligidagi innovatsion jarayon - bu yangi yoki yaxshilangan qishloq xo'jaligi mahsulotini va uni qayta ishlash mahsulotlarini, yangi yoki takomillashtirilgan ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish maqsadida, ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni amaga oshirish, innovatsiyalarni yaratish va ularni bevosita ishlab chiqarishda o'zlashtirish bo'yicha o'zaro bog'liq elementlar (bosqichlar, pog'onalar, tadbirlar) biror qonuniyatga asoslangan va ketma-ket almashinuvchi tizimidir [7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ob'ekti qishloq xo'jaligida innovatsion faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini, yo'nalishlari va asosiy bosqichlari hisoblanadi. Qishloq xo'jaligida innovatsion, resurs-tejamkor texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirish, iqtisodiy hodisalarni o'rganishda tizimli yondashuv, mamlakatimiz va xorijiy olimlarning nazariy qarashlarini umumlashtirish asosida nazariy xulosalar tayyorlash metodikasi bo'lib xizmat kiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qishloq xo'jaligida innovatsion jarayon xo'jalik yuritishning boshqa sohalariga nisbatan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quydagilar kiradi.

innovatsiyani joriy etish ishlab chiqarishning uzoq davom etadigan jarayoni (seleksiya ishlari) bilan bog'liqligi;

¹ S.N.Normurodov, I.N.Ziyadullayev, S.O'.Xoligov, O'.A. Abdullayev, H.F.Dilmurodov, FSS-2025, IOP Publishing, IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science 1535 (2025) 012028, doi:10.1088/1755-1315/1535/1/012028, <https://iopscience.iop.org/article/10.1088/1755-1315/1535/1/012028>



innovatsiyalarning ko'p qismi yaxshilovchi tavsifga ega bo'ladi (mutlaqo yangi narsani ixtiro qilish emas, balki ob'ektning hosildorligini, sifati va unumdorligini oshirishga yo'naltiriladi);

tirik organizmlar (o'simlik, xayvonlar, mikroorganizmlarni) va ularning biologik salohiyati bilan bog'liq holda yuz beradi;

ilmiy tadqiqot muassasalari yetakchi rol o'ynaydi;

tabiiy zonalarga va iqlim sharoitlariga bog'liq holda innovatsiyalar turlicha natija beradi.

Yuqoridagi xususiyatlar tufayli qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatiga innovatsiyalarni joriy etishning uchta asosiy yo'nalishini ajratib ko'rsatish mumkin (1-rasm):

inson omilini rivojlantirishga karatilgan innovatsiyalar, ta'lim sohasida yuqori malakali ilmiy xodimlarni tayyorlash, hamda yangiliklarni ishlab chiquvchi ilmiy-tadqiqot muassasalarini ustuvor rivojlanishida, innovatsiyalar bo'yicha ma'lumotlar banki, hamda qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga xizmat ko'rsatadigan axborot-maslahat xizmati yaratilishini o'z ichiga oladi;

biologik omildan foydalanishni yaxshilashga qaratilgan innovatsiyalar, tuproq unumdorligini oshirishini, qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi va chorva mollari mahsuldorligi o'sirishini ta'minlovchi yangiliklarni ishlab chiqish va o'zlashtirish bilan bog'liq bo'ladi. Aynan biologik omilga karatilgan innovatsiyalarning ahamiyati, iqtisodiyotning boshqa sohalariga qaraganda, qishloq xo'jaligi rivojlanishida innovatsion rivojlanishning o'ziga xosligini va ahamiyatini aks ettiradi;

- texnologik tavsifga ega innovatsiyalar, energiya va resurs tejovchi texnika, ilmiy sig'imga ega texnologiyalarni qo'llash asosida tarmoq texnik-texnologik salohiyati takomillashuvini ta'minlaydi.


Innovatsiyalarni texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiya sifatida va o'z navbatida texnologik innovatsion mahsulotli va jarayonli innovatsiyalarga bo'lish mumkin.

-texnologik jihatdan yangi yoki takomillashtirilgan innovatsion mahsulotni ishlab chiqish va joriy etishga yo'naltirilgan mahsulotli innovatsiya;

-texnologik jihatdan yangi yoki takomillashtirilgan holda ishlab chiqarilgan mahsulot yoki ta'lim uslublarni, shu jumladan innovatsion mahsulotni uzatish uslublarni ishlab chiqish va joriy etishga yo'naltirilgan jarayonli innovatsiya;

-mahsulotlarning dizayni va qadog'idagi o'zgarishlarni, sotuvning yangi uslublarni hamda mahsulotning taqdimotini, yangi narx strategiyalarini shakllantirishni qamrab oluvchi yangi yoki takomillashtirilgan marketing uslublarni ro'yobga chiqarishga yo'naltirilgan marketingli innovatsiya;

-biznesni yuritish, ta'lim, ish o'rinlarini va tashqi aloqalarni, shuningdek, tashkilotda biznes jarayonlarini takomillashtirishni yangi uslublarni ro'yobga chiqarishga yo'naltirilgan tashkiliy innovatsiya sifatida talqin qilish mumkin.



1-rasm. Qishloq xo'jaligi rivojlanishining innovatsion yo'nalishlari.

Ayni paytda innovatsiyalarni qishloq xo'jaligida qo'llanishi bo'yicha quyidagicha tasniflash mumkin. Boshqa tarmoqlardan farq qilgan holda agrar sohada innovatsiya sekinroq ro'y beradi, shu boisdan u alohida e'tiborni talab qiladi. Eng keng tarqalgan innovatsiyalar sifatida: o'simliklarning yangi navlari va gibridlari, chorva mollari zotlari, mikroorganizmlarning shtammlari, qishloq xo'jaligi texnikasining markalari va modifikatsiyalari, kimyoviy va biologik preparatlar, iqtisodiy ishlanmalarni (usullar, mexanizmlar, turli tavsiyalar va x.k) ko'rsatib o'tish mumkin.

Eng uzoq davom etadigan jarayon innovatsiyalarni yaratish jarayonidir. Fundamental va amaliy tadqiqotlarni o'tkazish muayyan darajada qoniqarsiz natija olish tahlikasi bilan ham bog'liq bo'lsada, ilmiy texnik mahsulotni yaratish jarayonidagi zarur bosqich hisoblanadi.

Ilmiy ishlanma faqat sinovdan o'tib, ommaviy ishlab chiqarishga joriy etilganidan keyingina innovatsiyaga aylanadi. Masalan qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasida ilmiy tadqiqotlar natijalari ilmiy ishning har bir alohida yo'nalishini moliyalashtirish boshlanishidan 15-20 yil o'tgach, chorva mollari zotlari seleksiyada esa 30-40



yildan keyin iqtisodiy samara beruvchi bosqichga o'tishi mumkin. Olingan dastlabki ilmiy natijalarni sinovdan o'tkazish va tekshirishni ilmiy muassasalar, maxsus davlat muassasalari va tashkilotlar amalga oshiradi.

Qishloq xo'jaligida seleksion yutuqlar asosan ilmiy-tadqiqot institutlarida amalga oshiriladi. Qishloq xo'jaligi ekinlarining yangi nav va gibridlari yaratiladi. Hususan:

- ilmiy-tadqiqot muassasalari naslchilik zavodlari chorva mollari zotlari liniyalarini yaratish ustida tadqiqotlar olib boriladi;

- mashinosozlik korxonalarida yangi texnikani seriyali ishlab chiqarishi yo'lga qo'yiladi;

- biologik laboratoriyalarda o'simliklarni xashoratlardan himoyalashda entomafaglarni ko'paytirish usullarini o'zlashtiradi.

Bozor sharoitida yangi innovatsion ishlanmalarni ishlab chiqarishga joriy etish yoki yangi g'oyalarni innovatsiyalarga aylantirish asosan tadbirkorlik faoliyati sub'ektlarining tijorat manfaatlariga erishish maqsadidagi tashabbusi bo'yicha amalga oshiriladi. Innovatsion ishlanmalar yaratishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar maqsadli moliyalashtirishni va davlatning har tomonlama qo'llab-quvvatlashini talab qiladi. Chunki innovatsiyalarning iqtisodiy samaradorligi va ishlab chiqaruvchini o'ziga jalb qiluvchi xususiyati, uning keng joriy etilishini belgilab beradi.

Qishloq xo'jaligi texnikasi, o'simliklar navining urug'larini va o'simliklarni himoya qilish vositalarini import qilish, bu boradagi ichki innovatsion faoliyatni moliyaviy qo'llab-quvvatlash kabi tadbirlar zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantiradi.

Mamlakatimizda ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyatni amalga oshirish, ilmiy-texnikaviy va innovatsion rivojlanishni ta'minlash uchun qulay shart- sharoitlar yaratishda mavjud moliyaviy va moddiy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi va xarajatlari dinamikasi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. O'zbekiston Respublikasida innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi va xarajatlari dinamikasi [6] mln.so'm

Yillar	O'z kuchi bilan ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi-jami	Shu jumladan, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	Salmog'i %	Texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlar-jami	Shu jumladan, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	Salmog'i %
2012 yil	3635933,2	1443,3	0,04	311879,9	942,7	0,30
2013 yil	4614656,2	6488,1	0,14	4634230,1	3988,2	0,09
2014 yil	7042964,5	33912	0,48	3757372,2	1841,9	0,05
2015 yil	8023628,5	16106	0,20	5528278,7	1775,3	0,03
2016 yil	10688246	35520	0,33	2571405,6	8144,3	0,32
2017 yil	18543331	47941	0,26	4162263,7	15685	0,38

Respublikada o'z kuchi bilan ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi, shu jumladan, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi bo'yicha 2019 yilda 0,04 foiz (1443,3 mln.so'm), 2020-yilda 0,14 foiz (6488,1 mln.so'm), 2021-yilda 0,48 foiz (33912,1 mln.so'm), 2022-yilda 0,20 foiz (16105,8 mln so'm), 2023-yilda 0,33 foiz (35520,3 mln.so'm), 2024-yilda 0,26 foiz (47941,3 mln.so'm)ni tashkil etgan. Texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlar, shu jumladan, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi bo'yicha 0,30 foiz (942,7 mln.so'm), 2013-yilda 0,09 foiz (3988,2 mln.so'm), 2014-yilda 0,05 foiz (1841,9 mln.so'm), 2015-yilda 0,03 foiz (1775,3 mln.so'm), 2016 yilda 0,32 foiz (8144,3 mln.so'm), 2017-yilda 0,38 foiz (15684,6 mln.so'm)ni tashkil etgan.

2-jadvalda 2012-2017-yillarda respublika xududlari bo'yicha o'z kuchi bilan ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmini ko'rish mumkin.

2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2019-yil mamlakatimizda jami 3635,9 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo'lib, bu miqdor yildan-yilga o'sib borgan va 2024-yilga kelib 18543,3 mlrd. so'mni tashkil qilgan [6].


Qoraqalpog'iston Respublikasida tahlil yillar davomida innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi 12,3 mlrd. so'mdan 3923,44 mlrd. so'mgacha o'zgargan.



Viloyatlar kesimida qaraydigan bo'lsak, (2-jadval, 2-rasm) 2019 yilda eng kam innovatsion mahsulotlar Namangan viloyatiga (0,98 mlrd.so'm), eng ko'pi esa Andijon viloyatiga (2820,6 mlrd. so'm) to'g'ri keladi. Bu raqamlar yildan yilga o'sib borishini ham kuzatish mumkin. Birgina Toshkent shahrini oladigan bo'lsak, bu yerda 2019-yilda 293,8 mlrd.so'mlik innovatsion mahsulot va xizmatlar taklif etilgan bo'lsa, 2024 yilda bu ko'rsatkich 7167,6 mlrd.so'mni tashkil etgan, ya'ni 6 yil davomida qariyb 24 barobarga o'sgan.

2-jadval. 2019-2024-yillarda hududlar bo'yicha o'z kuchi bilan ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi [6] mlrd. so'm.

	2019 y	2020 y	2021 y	2022 y	2023 y	2024 y
O'zbekiston Respublikasi	3635,9	4614,7	7042,9	8023,6	10688,2	18543,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	12,3	22,3	41,5	184,7	1957,2	3923,4
viloyatlar:						
Andijon	2820,6	2061,3	3706,0	1681,3	885,9	3765,6
Buxoro	16,4	52,6	81,8	65,1	77,2	76,6
Jizzax	48,1	73,2	32,4	120,6	68,5	187,9
Qashqadaryo	2,8	6,9	14,8	11,2	203,6	142,3
Navoiy	81,1	92,6	64,4	85,4	77,1	284,9
Namangan	0,98	39,8	122,3	213,7	161,6	234,9
Samarqand	2,8	277,9	381,2	701,5	638,2	786,7
Surxondaryo	13,8	5,6	19,8	32,6	42,5	79,8
Sirdaryo	109,5	81,2	66,2	122,4	97,9	162,7
Toshkent	219,4	409,3	443,1	800,4	993,7	1179,5
Farg'ona	13,3	28,4	48,3	104,9	282,2	412,4
Xorazm	1,01	13,7	32,5	80,3	70,9	138,6
Toshkent sh.	293,8	1476,8	1988,6	3719,4	5131,9	7167,6



2-rasm. 2019-2024 yillarda hududlar bo'yicha o'z kuchi bilan ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi



Shuningdek, boshqa viloyatlarda ham innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada ortgan. Bu esa respublikamizda yangi, innovatsion g'oya asosida mahsulot, ish va xizmatlarni taklif etish borasidagi ijobiy o'zgarishlarni jadal yuz berayotganini bildiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qishloq xo'jaligida innovatsion bozorni shakllantirishda innovatsiyalarga bo'lgan talabni o'rganish, innovatsion ishlanmalar, marketingi va ilmiy tadqiqotlarga buyurtmalar shakllantirish masalasi zamon talablaridan ortda qolmoqda. Innovatsion loyihalar iqtisodiy ekspertizasi, joriy qilishning samaradorlik ko'rsatkichlari va tavakkalchilik darajasi, olingan natijalarni ishlab chiqarishga joriy etish bosqichlarini asoslashga yetarli e'tibor berilmaydi. Natijada ilmiy-texnik ishlanmalar, ishlab chiqarishda foydalanish uchun tayyor bo'lgan innovatsion g'oyalar mahsulotga aylanmasdan qoladi.

Shuningdek qishloq xo'jaligida innovatsion faoliyatni faollashtirishda – innovatsion jarayonlarni ishga tushiradigan, zaruriy infratuzilma va mexanizmlarni rivojlantirish zarurati juda yuqori. Qishloq xo'jaligini innovatsion rivojlantirishda investitsiyalarni ko'proq jalb qilish uchun davlat- xususiy sherikchiligi imkoniyatlaridan keng foydalanish lozim;

qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirish iqtisodiy samaradorligini oshirishga qo'yilgan qishloq xo'jaligi ekinlarining yangi, samarali navlari, ularni parvarishlash agrotexnologiyalarini amaliyotga joriy etish bilan shug'ullanuvchi alohida sub'ektlarga o'z ichiga oluvchi infratuzilma sub'ektlarini rivojlantirish; baliqchilik, asalarichilik sohaslarini rivojlantirishda fermer va dehqon xo'jaliklarida kichik hajmli, zamonaviy texnologiyalarni kengroq joriy etishga qaratilgan ilmiy ishlanmalarni qo'shimcha ravishda manfaatdor vazirlik va idoralar tomonidan rag'batlantirib borish;

agrar sohaning eksport salohiyatini oshirishga imkon beruvchi noan'anaviy qishloq xo'jaligi ekinlari navlarini yaratish, joriy qilish, ularni parvarishlashning intensiv agrotexnik tadbirlarini yaratishga qaratilgan innovatsion ishlanmalarni kengaytirib borishni hisobga olgan holda tadbirlarni yo'lga qo'yish.

Qishloq xo'jaligida innovatsion faoliyatni rivojlantirish borasida quyidagi xulosalarni keltirish maqsadga muvofiqdir:

ilm-fan, ta'lim va ishlab-chiqarishning integratsiyasini ta'minlash borasida zamonaviy qishloq xo'jaligi bilimlarini targ'ib qilishning yagona tizimini shakllantirish;

qishloq xo'jaligi sohasida innovatsion texnologiyalar va ilg'or mahalliy hamda xorijiy tajribalar to'g'risida ma'lumotlar bazasini yaratish;

innovatsion texnologiyalar hamda ilm-fan yutuqlarini qishloq xo'jaligini quyi darajaga yetib borishida ko'prik vazifasini o'taydigan qishloq xo'jaligi axborot-maslahat markazlarini har bir tumanda tashkil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Арутюнов, Ю.А. Формирование региональной инновационной системий на основе кластерной модели экономики региона [Электронный ресурс] / Ю.А. Арутюнов. – Режим доступа: [хттп: // коет. сайтсу. ру/вестник/2008/2008-4/1/1.хтм](http://коет.сайтсу.ру/вестник/2008/2008-4/1/1.хтм)
2. Алпатов А.А. Государственно-частное партнерство: Механизм реализации / А.А. Алпатов, А.В. Пушкин, Р.М. Джапаридзе. – М.: Алпина Паблишер, 2010. – 198с.
3. Беленов О. Н., Смолянинова Т. Ю., Шурчкова Ю. В. Индустриальные парки: сущность и основные характеристики // Региональная экономика и управление. Электронный научный журнал. 2013. № 1 (33). С. 66-76.
4. Беркович М. И., Антипина Н. И. Особенности и классификация индустриальных парков: региональный аспект // Вестник Костромского государственного технологического университета. Серия "Экономические науки", 2013.- № 1(3). - С. 25-28.
5. Salimov B.B. Sanoat maxsuloti ishlab chiqarishning hududlar bo'yicha qiyosiy tahlili va uni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar", ilmiy elektron jurnal, №3, May-iyun, 2018y.
6. Chuvardinskiy I.V. Industrialniye parki-element sovremennoy promyshlennoy infrastrukturiy. Formirovanie industrialniyx parkov, KPI Key Partner & Intesco. www.keypartner.ru
7. S.N.Normurodov, I.N.Ziyadullayev, S.O'.Xoliqov, O'.A.Abdullayev, H.F.Dilmurodov, FSS-2025, IOP Publishing, IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science 1535 (2025) 012028, doi:10.1088/1755-1315/1535/1/012028, <https://iopscience.iop.org/article/10.1088/1755-1315/1535/1/012028>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>